

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi

GUVOHNOMA



Yuridik shaxs

"O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda yuridik shaxs - tadbirkorlik subyektining to'liq nomi

"O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI" AJ

Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi

311 415 426

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

22.06.2024

Sana

2497908

Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

AKSIYADORLIK JAMIYATI

Faoliyatni amalga oshirish joyining manzili:

TOSHKENT VILOYATI, CHIRCHIQ SHAHRI, V.XAYDAROV MFY, VOXID XAYDAROV KO'CHASI, 1-UY

Tomonidan berilgan:

TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI DXM

6162021



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgartirishdan oldin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (SSTR)
311 415 426

Nomi
O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR
KOMBINATI

Taashdiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toashkent viloyati, Chirchiq shahri, V.Xaydarov MFY,
Vohid Xaydarov ko'chasi, 1-uy

Faoliyat turi
Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan
bog'liq faoliyat

24.02.2026
Guvohnoma olingan sana
3138904
Ariza raqami

O'zgartirishdan keyin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (SSTR)
311 415 426

Nomi
O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR
KOMBINATI

Taashdiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toashkent viloyati, Chirchiq shahri, V.Xaydarov MFY,
Vohid Xaydarov ko'chasi, 1-uy

Faoliyat turi
Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanoati bilan
bog'liq faoliyat

6162020



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgarishdan oldingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot
Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 257 459 1091
Aksiya bahosi: 100 so'm

Ustav fondi
257 459 109 100 so'm

24.02.2026
Guvohnoma olingan sana
3138904
Ariza raqami

6162020



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgarishdan keyingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot
Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 2574591091 Aksiya bahosi: 100 so'm

Aksiya to'g'risida ma'lumot
Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 3500000000 Aksiya bahosi: 100 so'm

Ustav fondi

647 459 109 100 so'm



24.02.2026

3138904

Quvchnoma olingan sana

Afiza raqami

6162020



“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati”
aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarning
2026-yil “21” fevral dagi navbatdagi umumiy
yig‘ilishining
12 -sonli Qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

USTAVI

(yangi tahriri)

Chirchiq 2026-y.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (*matn davomida Qonun, 06.05.2014-yil, 370-son*) Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.1. "**O'zbekiston texnologik metallar kombinati**" aksiyadorlik jamiyati (*keying o'rinda – Jamiyat*) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son Qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoat va geologiya vazirligining 2024-yil 24-maydagi topshirig'iga muvofiq tashkil etilgan.

1.2. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Qonun va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. Jamiyatning to'liq nomi:

- davlat tilidagi to'liq nomi:

"O'zbekiston texnologik metallar kombinati" aksiyadorlik jamiyati;

- davlat tilidagi qisqartirilgan nomi:

"O'zTMK" AJ;

- rus tilidagi to'liq nomi:

Акционерное общество "Узбекский комбинат технологических металлов";

- rus tilidagi qisqartirilgan nomi:

АО "УзКТМ";

- ingliz tilidagi to'liq nomi:

"Uzbekistan Technological Metals Complex" joint-stock company

- ingliz tilidagi qisqartirilgan nomi:

«UzTMC» JSC.

1.4. Jamiyatning manzili: 111709, O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, V.Xaydarov ko'chasi, 1.

1.5. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uztmk.uz.

1.6. Jamiyatning rasmiy korporativ veb sayti: www.uztmk.uz

II. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOGBARLIGI

2.1. Jamiyat filiallar, qo'shma korxonalarni tashkil etishi, hamda Jamiyatning tasdiqlangan nizomlariga amal qiluvchi vakolatxonalarni ochishi mumkin.

2.2. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'ulyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega hamda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqari bank hisob varaqlari ochish huquqiga ega.

2.3. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, hamda

amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.4. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

2.5. Jamiyat o'zining nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega. Muhrda bir vaqtning o'zida Jamiyatning o'zida Jamiyatning nomi boshqa istalgan tilda ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

2.5. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisi hamda fuqarolik munosabatlari ishtirokchilarning, tovarlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalariga ega bo'lishga haqli.

2.6. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida shuningdek, tashqarisida xorijiy hamkorlar bilan amaldagi qonunlar doirasida shartnomalar, bitimlar va boshqa huquqiy hujjatlarni imzolashi mumkin.

2.7. Jamiyat o'z mahsulotlariga va ko'rsatilayotgan xizmatlariga mijozlar bilan shartnomalar asosida narxlarni belgilaydi yoki ularni erkin narxlarda sotuvga chiqaradi.

2.8. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2.9. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

2.10. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

2.11. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.12. Agar Jamiyatning bankrotligi Jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorlarning zimmasiga Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyadorlar majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavida bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo'ladi.

2.13. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar Jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan Jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning bankrotligi aksiyadorlarning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

2.14. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

III. JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY VAZIFALARI, YO'NALISHLARI VA MAQSADI

3.1. Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

3.1.1. Mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish, rangli va nodir metallar rudalari yangi konlarini o'zlashtirish sohasida tog'-kon sanoatini yuritish, foydali qazilmalarni olish va ularni kelgusida qayta ishlashni tashkillashtirishning zamonaviy usullari tatbiq etilishini ta'minlashga, rangli va nodir metallarni chuqur qayta ishlash asosida eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini kuchaytirishga yo'naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirish.

3.1.2. Yangi yuqori texnologik korxonalar qurilishi va ishga tushirilishini, yangi ish o'rinlari yaratilishini, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari samaradorligi va shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan loyihaviy boshqaruvning zamonaviy usullari tadbiq etilishini nazarda tutadigan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investitsiyalar, shu jumladan chet el investitsiyalarining barqaror jalb etilishini ta'minlaydigan faol investitsiya siyosatini olib borish;

3.1.3. Ayrim turdagi mahsulotlar va xizmatlar importini bosqichma – bosqich qisqartirish maqsadida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, import o'rnini bosish va ichki bozorni kerakli mahsulotlar va butlovchi buyumlar bilan ta'minlash jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlaridan ustuvor foydalanish asosida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

3.1.4. Ilmiy tadqiqot ishlarini, shu jumladan rangli, qimmatbaho, nodir metallar va qattiq qotishmalar sohasida amaliy tadqiqotlar dasturlarini bajarish doirasidagi ishlarni tashkillashtirish, yangi texnologiyalar va innovatsiya loyihalarini ishlab chiqishda va ishlab chiqarishga tatbiq etishda ishtirok etish;

3.1.5. Kombinatning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, texnik – muhandislar va boshqaruv kadrlar malakalarini oshirish, kooperatsiyani oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim va ilmiy muassasalar bilan kuchaytirish orqali ularning qayta tayyorlanishini tashkillashtirish, kuchli raqobatchilik sharoitlarida tarmoqning samarali faoliyat yuritishini ta'minlay oladigan yosh va iste'dodli mutaxassislarni jalb etish;

3.1.6. Jamiyatning asosiy faoliyati rangli, qimmatbaho, noyob va boshqa metall rudalarini qazib chiqarish va boyitish bo'yicha ishlab-chiqarishni tashkil qilish, tozalangan mis, rux metali, qimmatbaho va noyob metallar va ularning qotishmalarini, oltingugurt kislotasi, boshqa turdosh oraliq mahsulotlarni ishlab chiqarish hisoblanadi.

3.1.7. Tog'-kon metallurgiya tarmoqlarida maxsus texnologik liniyalar va asbob-uskunalar, metall konstruksiyalar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatlarini montaj qilish va sozlash, ishga tushirish, sanitariya-texnik, elektromontaj, izolyatsiya va kimyoviy himoya ishlarini bajarish, ishlab chiqarish obyektlari, transport va muhandislik infratuzilmalarini qurish;

3.1.8. Tog'-kon metallurgiya tarmoqlarida tasdiqlangan dasturlar, shuningdek, hududiy rivojlanish dasturlari doirasida to'liq tugatib topshirish usulida qurilish, montaj va maxsus ishlarning barcha majmuini amalga oshirish;

3.1.9. O'zbekiston Respublikasi bozorlarini yuqori sifatli tovarlar bilan to'ldirish;

- investitsiyani jalb qilish yo'li va Jamiyatning fan-texnika yutuqlari hisobiga modernizatsiya va texnik qayta jihozlashni amalga oshirish;

- import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan yuqori texnologiyali qattiq qotishmali, ular asosidagi aralashmali metall mahsulotlar chiqarish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish;

- Jamiyatning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan faoliyat turlarini va talablarini erkin muomaladagi valyutada qoplash;

- mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini olingan daromadlar hisobiga amalga oshirish.

3.1.10. Barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatni ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillari asosida amalga oshirish, jumladan:

- tabiiy, energetik va suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga solish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, ekologik va energetik menejment tizimlarini (jumladan, ISO 14001 va ISO 50001 xalqaro standartlariga muvofiq) joriy etish;

- xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash, ijtimoiy standartlar va xodimlar huquqlariga rioya etishni muvofiqlashtirish, jamiyat xodimlarining malakasini oshirish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish (ISO 26000, ISO 45001, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalari,

- BMT Global Shartnomasi talablariga muvofiq);

- korporativ boshqaruvni takomillashtirish, boshqaruv organlarining shaffofligini va hisobdorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni targ'ib qilish (ISO 37001);

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan qismida xalqaro tavsiyalar (GRI, SASB, TCFD va boshqalar) asosida barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va e'lon qilish.

3.1.11. ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) rivojlanish sohasida korporativ dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jumladan, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, chiqindilar bilan muomala qilish, xodimlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish va innovatsion "yashil" texnologiyalarni joriy etish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

3.2. Jamiyat faoliyatining predmeti:

3.2.1. Kon va metallurgiya ishlab chiqarishi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

3.2.2. Tovarlar ishlab chiqarish va tarqatish, korxona, tashkilot va fuqarolarga xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish;

3.2.3. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos tashqi iqtisodiy faoliyat;

3.2.4. Qattiq qotishmali va o'tga chidamli metallar, qattiq aralashmalar hamda kukunli va uyg'unlashgan materiallarni ishlab chiqarishda yangi-yuqori texnologiyalarni qayta ishlash va tatbiq etish;

3.2.5. Ishlab chiqarish chiqindilaridan qimmatbaho komponentlarni kompleks (*kamyob va boshqa rangli metallar*) ajratib olish;

3.2.6. Xalq iste'moli tovarlari va texnik ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar chiqarish bo'yicha infrastrukturalar va ishlab chiqarishni yaratish;

3.2.7. Energiya resurslarini realizatsiya qilish;

3.2.8. Xo'jalik elektr jihozlarni o'rnatish va profilaktik tajribalar tartibga keltirish ishlarini amalga oshirish;

3.2.9. Tovarlar, xizmatlar va kapital bozorini o'rganish, investitsiyalarni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashga jalb qilish;

3.2.10. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlariga hamda xorijda agentlik va boshqa rasmiy xizmatlarni tashkil etish;

3.2.11. Konsignatsion, marketing, diler va boshqa faoliyatlarni amalga oshirish;

3.2.12. Ilmiy texnik, reklama, konsalting faktorli va boshqa tatbiq etuvchi xizmatlarni ko'rsatish.

3.2.13. Nodir va noyob metallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida amaliy tadqiqotlar va yangi ishlanmalarni olib borish, nodir va noyob metallardan, yarim mahsulotlardan, qotishmalardan va boshqa yuqori mahsulotlardan foydalanish bo'yicha zamonaviy ilg'or texnologiyalarni faol o'rganish va tatbiq qilish;

3.2.14. Berilgan kimyoviy va fazaviy tarkibli sof metallar, qotishmalar va kompozitsion kukunlar olish orqali nodir va noyob metallarni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish va sanoat asosida o'zlashtirish;

3.2.15. Volfram, molibdenni ishlab chiqarish, nodir va noyob metallarga chuqur qayta ishlov berish va ulardan ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan buyumlar, qattiq qotishmali asboblari (ehtiyot qismlar), kimyoviy katalizatorlar, kompozit materiallar va yuqori qo'shilgan qiymatli boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;

3.2.16. Tashqi bozorlarda yuqori talabga ega bo'lgan sanoat yarim mahsulotlarni va buyumlarini ishlab chiqargan holda, nodir va noyob metallarni chuqur qayta ishlashini, shuningdek respublikaning boshqa korxonalaridan olinadigan nodir va noyob metallar yarim mahsulotlarini qayta ishlashini ta'minlash;

3.2.17. Tarkibida rangli va qimmatbaho metallar mavjud bo'lgan ikkilamchi resurslar va chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash.

3.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va ushbu Nizomda nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlari, vazifalari va maqsadlariga mos keladigan faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

3.4. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

3.5. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini, qo'riqlash - yong'indan avtomatik tarzda xabar berish va telekuzatuv tizimlarini, ma'lumotlar berish tarmoqlarini loyihalash, montaj qilish, sozlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.

3.6. Dam olish uylari va maskanlari, davolash-sog'lomlashtirish muassasalari, maktabgacha ta'lim, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniy va dam olish bog'lari, attraksionlar va aholiga ijtimoiy va madaniy xizmat ko'rsatadigan boshqa muassasalar ishini tashkil etish;

3.7. Korxona mablag'lari hisobidan, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shartnoma asosida kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish;

3.8. Texnika, texnologiya va boshqa sohalardagi "nou-xau"larni mamlakat ichkarisida va chet ellarda sotish va sotib olish.

IV. JAMIYATNING USTAV FONDI

4.1. Jamiyatning Ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan olingan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

4.2. Jamiyatning Ustav kapitali Jamiyat mol-mulkining Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

4.3. Jamiyatning ustav kapitali 647 459 109 100 (olti yuz qirq yetti milliard to'rt yuz ellik to'qqiz million bir yuz to'qqiz ming bir yuz) so'mni tashkil qiladi va har bir aksiyaning nominal qiymati **100 (bir yuz)** so'm bo'lgan 6 474 591 091 (olti milliard to'rt yuz yetmish to'rt million besh yuz to'qson bir ming to'qson bir) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

- "Olmaliq kon metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ulishi 39,8%ni tashkil etadi, 257 459 109 100 (ikki yuz ellik yetti milliard to'rt yuz ellik to'qqiz million bir yuz to'qqiz ming bir yuz) so'm bo'lib, 2 574 591 091 (ikki milliard besh yuz yetmish to'rt million besh yuz to'qson bir ming to'qson bir) dona oddiy aksiyalardan iborat;

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushi 60,2%ni tashkil etadi, 390 000 000 000 (uch yuz to'qson milliard) so'm bo'lib, 3 900 000 000 (uch milliard to'qqiz yuz million) dona oddiy aksiyalardan iborat.

4.4. Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Bunda joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav kapitalining 25 (*yigirma besh*) foizidan oshmasligi kerak.

V. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KO'PAYTIRISH

5.1. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.2. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

5.3. Jamiyat e'lon qilingan aksiyalari - Jamiyat Ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga, qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni nominal qiymati **100 (*bir yuz*)** so'm bo'lgan 46 100 000 000 (qirq olti milliard bir yuz million) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

5.4. Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

5.5. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

5.6. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi qarori bilan yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyatning Kuzatuv kengashiga shunday qarorlar qabul qilish huquqi berilgan bo'lsa, Jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan qabul qilinadi.

5.7. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

5.8. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

5.9. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

5.10. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni

chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

5.11. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.12. Jamiyatning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiya tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.13. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan qabul qilinadi.

VI. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KAMAYTIRISH

6.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni sotib olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

6.2. Jamiyatning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

6.3. Jamiyat o'z ustav kapitalini, agar bunday kamaytirish natijasida uning miqdori Qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kam bo'lsa, kamaytirishi mumkin emas.

6.4. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

6.5. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

6.6. Jamiyat kreditorlarni ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qiladi. Kreditorlar ularga Jamiyat ustav kapitalining kamayishi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarilishini va tegishli zararlarining qoplanishini talab qilishga haqlidirlar.

VII. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI

7.1. Jamiyat o'zining aksiyalari oddiy, shuningdek imtiyozli aksiyalar chiqarish huquqiga ega bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi.

7.2. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

7.3. Jamiyatning aksiyasi bo'linmaydi. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

7.4. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

7.5. Jamiyat Qonun hujjatlariga va ustaviga muvofiq, aksiyalar bilan bir qatorda obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirishga haqli.

7.6. Jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va ularning muomalasi tartibi Qonun hujjatlari va Jamiyat ustavida belgilanadi.

VIII. DAROMADNI (FOYDANI), DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

8.1. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

8.2. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

8.3. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin.

8.4. Dividend aksiyadorlarga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

8.5. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra hamda moliyaviy yil natijalariga ko'ra, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

8.6. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

8.7. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

8.8. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda, dividendning miqdori, dividendni to'lash shakli va tartibi hamda uni to'lash muddati, ya'ni to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

8.9. Dividendlar Jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan yoki o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

8.10. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

8.11. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

8.12. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorda belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'lmasligi lozim.

8.13. Jamiyat:

- agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas;

- ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorga to'lashi shart.

Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va Jamiyatning rasmiy veb-saytlarida Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

IX. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

9.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

9.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

9.4. Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning sof foydasidan har yili 5 (besh) foiz miqdorida ajratmalar qilish yo'li bilan, miqdori ustav fondining 15 (o'n besh) foiziga teng bo'lgunga qadar hosil qilinadi.

Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

X. AKSIYADORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

10.1. Jamiyatning aksiyadori quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;

- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

- Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilish qarorlari orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

10.2. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va Qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

10.3. Aksiyadorlar o'z huquqlarini bevosita, shaxsan va vakili orqali amalga oshirishlari mumkin. Vakil sifatida har qanday uchinchi shaxs, shu jumladan boshqa aksiyador, shuningdek Jamiyatning mansabdor shaxsi qatnashishi mumkin. Vakil tayinlash tartibi Qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

10.4. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni — mazkur aksiyalar egasini qonunda belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

10.5. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran ularni oluvchiga o'tadi.

10.6. Aksiyador mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

10.7. Jamiyat aksiyadori quyidagi majburiyatlarga ega:

- Jamiyatning Ustav qoidalariga va Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdorda va usulda hissa qo'shish (aksiya haqini to'lash);
- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni tashkil qiluvchi sirlarni fosh qilmaslik;
- minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat Boshqaruv raisi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim;

10.8. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida Jamiyatni, uning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi Markaziy depozitariyni yoki investitsiya vositachisini o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, Jamiyat, Markaziy depozitariy

va investitsiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

Aksiyador mazkur ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

XI. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

11.1. Quyidagilar Jamiyatning boshqaruv organlari hisoblanadilar:

11.1.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi - oliy boshqaruv organi;

11.1.2. Kuzatuv kengashi - Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi organ;

11.1.3. Boshqaruv - Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi kollegial ijroiya organ,

11.1.4. Ijroiya organining rahbari: Boshqaruv Raisi Jamiyatning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

11.2. Quyidagilar Jamiyatning nazorat qiluvchi organlari hisoblanadilar:

11.2.1. Jamiyatning ichki audit xizmati - Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qilishni va baholashni amalga oshiradi;

11.2.2. Korporativ maslahatchi – Jamiyatda korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi mutaxassis.

11.2.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi – minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil qilinadigan organ.

11.2.4. Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

XII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

12.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

12.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashini saylash, Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga muvofiq, jamiyatning yillik hisoboti jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi. Yig'ilishda boshqa masalalar ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

12.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
- ustav kapitalini kamaytirish;
- Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyatning ijroiya organi rahbarini (Boshqaruv raisi) saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir Qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;
- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish. Bunda yirik bitim va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi. Bunda jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar yirik bitimlar deb e'tirof etilmaydi;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;

- sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari va hisobotlari shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

12.5. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun va ushbu ustav bilan Jamiyat aksiyadorlari tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

12.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

12.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

XIII. JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI

13.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonuni va Jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolati doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

13.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadilar. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

13.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni kamida 7 (yetti) kishidan iborat.

13.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq yoki kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

- ichki audit (revizor) xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyat Komplaynes xizmati tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- zahira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi);

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish. Bunda yirik bitim va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

Bunda jamiyatning kundalik xo‘jalik yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar yirik bitimlar deb e’tirof etilmaydi;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- Kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a‘zolari, jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo‘yicha qo‘mitalar (ishchi guruhlar) tashkil etish;

- jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda jamiyatning e‘lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi masalalarni hal qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning har yilgi investitsiya siyosatini tasdiqlash;

- jamiyat o‘z mablag‘larini moliya tashkilotlarda joylashtirish, shu jumladan, depozitlar hamda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishini tasdiqlash

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

13.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o‘tkazilishi mumkin emas. Mazkur ustavda ko‘rsatib o‘tilgan holatlarda, ijroiya organi vakolatiga kiritilgan ayrim masalalar Kuzatuv kengashining vakolatlari doirasiga kiritilib, hal qilinishi mumkin.

13.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatiga O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ham hal qilish uchun kiritilishi mumkin.

13.7. Kuzatuv kengashi a‘zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

13.8. Kuzatuv kengashining raisi kengash a‘zolari tomonidan ularning o‘zlari orasidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o‘z raisini jami a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

13.9. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi hamda ijroiya organi rahbari (Boshqaruv raisi) bilan mehnat shartnomasini imzolashi mumkin.

13.10. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

13.11. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, ijroiya organi talabiga ko'ra chaqiriladi.

13.12. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lmashligi kerak. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining kamida yetmish besh foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi.

13.13. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosi berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

13.14. Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunolari orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.

13.15. Balans qiymati yoki oldin qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarining ovozi inobatga olinmaydi. Bunda jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar yirik bitimlar deb e'tirof etilmaydi.

13.16. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi va kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilgandan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolalanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

13.17. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

13.18. Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayoni imzolangan kuni jamiyat ijroiya organiga ijro qilish uchun taqdim etiladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda ushbu qaror to'g'risidagi ma'lumotlar Kuzatuv kengashi yig'ilishi kuni Jamiyatning ijroiya organiga yuboriladi

13.19. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular Qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

13.20. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishining qaroriga binoan Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga haq to'lanishi yoki ularning o'z majburiyatlarini bajarishlari bilan bog'liq harajatlari Jamiyat tomonidan qoplanishi mumkin. Haqlar, harajatlarning miqdorlari va ularni to'lash tartibi jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi.

13.21. Kuzatuv kengashi mazkur ustav va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

XIV. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

14.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish Boshqaruv Raisi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustavga muvofiq bir yil muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) 7 ta a'zodan tashkil topadi.

14.2. Jamiyat Boshqaruv raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi. Boshqaruv a'zolari jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga asosan lavozimga tayinlanadi.

Boshqaruvni Boshqaruv Raisi, u bo'lmagan taqdirda uning birinchi o'rinbosari yoki rais o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

14.3. Boshqaruv Raisini ishga yollash to'g'risidagi shartnoma (kontrakt) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan tuziladi (uzaytiriladi) yoki tugatiladi (to'xtatiladi).

14.4 Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a'zolari bilan Jamiyat nomidan shartnoma Kuzatuv kengashining Raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

14.5. Jamiyat Boshqaruvi raisining vakolatlari muddatidan avval tugatilganda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlanishiga, Boshqaruv raisi saylanadigan aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilgunga qadar yo'l qo'yiladi.

14.6. Jamiyat Boshqaruvi o'z faoliyatini qonunchilikka, ushbu Ustavga, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risidagi Nizom"ga binoan amalga oshiradi.

14.7. Jamiyat Ijroiya organining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini amalga oshiradi va tashkil qiladi.

14.8. Boshqaruv vakolati doirasiga shuningdek quyidagilar kiradi:

Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish bo'yicha istiqbolli rejalarni, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

Jamiyatning daromadini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kundalik xo'jalik siyosatini tuzib chiqish va amalga oshirish;

Jamiyatning biznes-rejasi asosida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish dasturini shakllantirish va tasdiqlash, Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish hajmini aniqlash;

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqish va ishlab chiqish;

ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlash va ekologiya talablariga rioya qilish;

Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritiladigan masalalar bo'yicha axborotlar, materiallar va takliflarni tayyorlash;

Jamiyatning biznes-rejasini va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa dasturlarini ishlab chiqish;

Jamiyatning yillik ish istiqbollari, yillik balansi, foyda va zararlari haqidagi hisobotlar va boshqa kerakli hisobot hujjatlarini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

foydani taqsimlash va zararni qoplash bo'yicha takliflarni Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim qilish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida va Kuzatuv kengashida ularning vakolatlari doirasiga kiritilgan masalalar va hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ko'rib chiqiladigan materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

tijorat sirini (maxfiy axborot hisoblangan) tashkil qilgan ma'lumotlarning tarkibini va hajmini, ularni himoya qilish tartibini aniqlash;

Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan yirik innovatsiya va investitsiya loyihalari va dasturlarini oldindan ko'rib chiqish;

Bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agarda bunday bitimlarning (shartnomalarning) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sof aktivlari miqdorining uch foizidan o'n besh foizigacha bo'lgan qiymatini tashkil etganda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordami ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarini (Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari, bayonnoma qarorlari, topshiriqlari va h.k.) ijro etish;

Jamiyatning ichki tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risidagi takliflarni tayyorlash va asoslash;

Jamiyatning tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasidan chiqmagan holda boshqarmalar ichida bo'limlarni tashkil etish;

Boshqaruv vakolat doirasiga taalluqli masalalar bo'yicha Jamiyat ichki hujjatlarini tasdiqlash;

Boshqaruv Raisi tomonidan Boshqaruvga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan, Jamiyat kundalik faoliyatining boshqa masalalarini hal qilish.

14.9. Boshqaruv faoliyatiga rahbarlikni Jamiyatning Boshqaruv Raisi amalga oshiradi.

Jamiyatning Boshqaruv Raisi:

- Boshqaruv faoliyatini tashkil qiladi, Boshqaruv a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlaydi, Boshqaruv tomonidan asoslangan va samarali qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi, Boshqaruv majlislarida Raislik qiladi, ushbu Ustav, shuningdek "Ijroiya organi to'g'risidagi Nizom"da nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qiladi;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, uning manfaatlarini ifodalaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- Bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida, jumladan, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi, agarda bunday bitimlarning (shartnomalarning) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sof aktivlari qiymatining uch foizidan ortiq bo'lmasa;

- Jamiyatning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati uchun javob beradi;

Jamiyatning kundalik faoliyatiga taalluqli bo'lgan, Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolati doirasiga kirmaydigan masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi.

14.10. Jamiyatning Boshqaruv Raisi:

- O'zbekiston Respublikasida va chet ellarda shartnomalar tuzish, bank va moliya operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek bunday operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa shaxslarga ishonchnomalar berish;

- Jamiyatning moliyaviy, investitsiya, ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirilishini tashkil qilish;

- Jamiyatning mulki va vositalarini boshqarish;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga nisbatan Jamiyat nomidan da'vo bo'yicha qaror qabul qilish;

banklarda hisob, valyuta va boshqa varaqlarni ochish;

- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal qilish;

- Jamiyat oldiga qo'yilgan masalalarni bajarish uchun boshqa funksiyalarni bajarish;

- mehnat qonunchiligiga muvofiq Jamiyatning ishchilar bilan mehnat munosabatida ish beruvchining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq Jamiyat ishchilari lavozim maoshlarining miqdorini belgilash, xodimlar mukofot pulining miqdorini aniqlash;

- Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimiga nomzodlarni kiritish;
- Jamiyat Boshqaruv organlarining qarorlarini bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- qonunchilik, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv tomonidan Boshqaruv Raisiga yuklatilishi mumkin bo'lgan boshqa funksiyalarni bajarish.

XV. MINORITAR AKSIYADORLAR QO'MITASI

15.1. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Jamiyatda Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

15.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Jamiyatga Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

15.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan minoritar aksiyadorlar orasidan 5 kishi bir yil muddatga saylanadi.

15.4. Jamiyat Boshqaruv raisi, shuningdek Jamiyat Kuzatuv kengashi hamda, taftish komissiyasi a'zolari Jamiyatning qo'mita a'zolari tarkibiga kiritilishi mumkin emas. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Jamiyatning Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;
- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

15.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga nomzodlarni kiritish va uning a'zolarini saylash, shuningdek, ularni faoliyati tartibi Jamiyat tomonidan qonunchilik me'yorlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga tasdiqlash uchun taqdim qilinadi.

15.6. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolariga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra "Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq haq to'lanadi.

15.7. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini ta'minlash xarajatlari Jamiyat tomonidan qoplanadi.

XVI. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

16.1. Jamiyat aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobarini tashkil etsa yoki oshsa jamiyatda ichki audit (revizor) xizmati tashkil etiladi. Ichki audit (revizor) xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

16.2. Jamiyatning ichki audit (revizor) xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan Qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan Qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

16.3. Jamiyatning ichki audit (revizor) xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

16.4. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

16.5. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

16.6. Jamiyatda Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ Qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etilishi mumkin.

16.7. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

XVII. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

17.1. Jamiyat:

- Jamiyatning ustavini, ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;

- Jamiyatning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;

- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi haqidagi nizomni;

- Jamiyatning yillik hisobotini;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorlarni;

- aksiyalar emissiyasi risolasini;

- buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;

- tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;

- Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishlarining, Kuzatuv kengashi shuningdek jamiyat Boshqaruv raisining buyruqlarini;

- Jamiyatning affillangan shaxslari ro'yxatlarini;

- Jamiyat aksiyadorlarining reyestrlarini;

- auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart.

Jamiyat Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

XVIII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

18.1. Jamiyatni qayta tashkil etish tartibi:

- Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib olish, qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

18.2. Jamiyatni tugatish tartibi:

- Jamiyatni tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi Qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. Jamiyatni tugatish uning huquq, va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda Jamiyat faoliyatini to'xtatilishiga olib keladi.

XIX. YAKUNIY QOIDALAR

19.1. Jamiyat ustavida ko'zda tutilmagan qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa Qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi.

19.2. Jamiyat ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar amaldagi Qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

19.3. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

19.4. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

19.5. Mazkur ustav va uning kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

19.6. Jamiyat o'z faoliyatida barqaror rivojlanish va korporativ ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga, shuningdek, xalqaro ESG standartlariga rioya etishini belgilaydi. Ushbu bandlar Jamiyat faoliyatida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro ISO 14001, ISO 45001, ISO 37001 va ISO 50001 standartlariga muvofiq keladi.

BOSHQARUV RAISI



F.R. ABDULLAYEV

F.R. Abdullayev

F.R. Abdullayev